

XAMSADA SALAFLAR TA'RIFI

Rabbimqulova Go'zal Egamberdi qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik fakulteti 1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17458522>

Annotatsiya. Ushbu maqola xamsachili an'anasini davom ettirgan Xazrat Alisher Navoiy "Xamsa" sidagi boblarda Salaflarning ta'rifi haqida. Xamsachilikda ulkan iz qoldirgan, barchamizga ma'lum va mashhur uchta shoir Abdurahmon Jomiy, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy vasfida yozilgan boblarning bir-biridan farqli jihatlari, qaysi dostonida qanday ta'riflanganligi keltirib o'tiladi. Navoiy har bir dostonida har bir Salaf haqida turli fikrlarni bayon etadi va hech biri takrorlanmaydi.

Kalit so'zlar: Xamsa, xamsachilik, salaflar, so'fiy, valiulloh, "Tuhfa", fano, "Zinda Pil", pil, nazm, nasr, qaranful, Ganja.

Annotation. This article discusses the description of the predecessors (Salafs) in the chapters of Hazrat Alisher Navoi's "Khamsa", who continued the tradition of Khamsachilik (writing a cycle of five epics). It highlights the differences between the chapters dedicated to the three renowned and influential poets who left a great mark on this tradition — Abdurahman Jami, Nizami Ganjavi, and Khusrav Dehlavi — and explains how each of them is portrayed in different epics. In each of his works, Navoi expresses unique views about every predecessor, and none of them are repeated.

Keywords: Khamsa, Khamsachilik, Salafs, Sufi, Valiullah, Tuhfa, Fano, Zinda Pil, elephant, verse, prose, clove, Ganja.

Аннотация. В данной статье рассматривается описание салафов в главах «Хамсы» великого поэта Хазрата Алишера Навои, продолжившего традицию хамсачилик. Приводятся различия между главами, посвящёнными трём известным и прославленным поэтам, оставившим глубокий след в хамсачилик — Абдуррахману Джамии, Низами Гянджеви и Хосрову Дехлеви, — а также указывается, в каком дастане и как они описаны. В каждом из своих дастаном Навои высказывает разные мнения о каждом из салафов, и ни одно из них не повторяется.

Ключевые слова: Хамса, хамсачилик, салафы, суфий, валиуллох, «Тухфа», фано, «Зинда Пил», пил, назм, наср, каранфул, Гянджа.

Sharq musulmon poetikasida xamsachilik XIII asrda vujudga kelgan. Birinchi bo'ib ozarbayjonlik Nizomiy Ganjaviy 34 yil davomida xamsa yozgan. Biroq bu asarlari vafotidan so'ng xamsa sifatida birlashtirilgan. Nizomiyning xamsasidagi birinchi doston "Maxzan ul-asror" (sirlar xazinasi), ikkinchisi "Xusrav va Shirin", uchinchisi "Layli va Majnun", to'rtinchisi "Haft paykar", beshinchisi "Iskandarnoma". Nizomiydan so'ng javob tarzida Xusrav Dehlaviy Xamsa yaratadi. Xamsani birinchi bor Nizomiy yozgan bo'lsa ham lekin xamsachilik an'anasini X. Dehlaviy boshlab beradi. Dehlaviyning "Xamsa"siga quyidagi dostonlardan iborat: 1) "Matla' ul-anvar" (nurlar chiqish joyi); 2) "Shirin va Xusrav"; 3) "Majnun va Layli"; 4) "Oyinai Iskandariy" (Iskandar ko'zgusi); 5) "Hasht behisht" (sakkiz jannat).

Xusrav Dehlaviydan soʻng Navoiyning zamondoshi ham ustoz Jomiy Xamsa yozadi. Jomiyning xamsasi beshta emas yettita dostonidan iborat boʻlganligi uchun baʼzi olimlar ungs Xamsa sifatida qaramaydi.

Jomiyning xamsasiga kiruvchi dostonlar: 1) "Tuhfat ul-ahror"; 2) "Suhbat ul-abror"; 3) "Yusuf va Zulayho"; 4) "Layli va Majnun"; 5) "Xirandnomayi Iskandariy". Undan soʻng Navoiy ikkilanishlar bilan boshlaydi. Bunday ulugʻ ishga qoʻl urish tabiiyki oson emas. Navoiy ustozidan oq fотиha olib, men ham boshlasam va bunga u (yaʼni Jomiyi nazarda tutadi) boʻronida rozi boʻlsa qarshi boʻlmasa va zohirida yordam berib tursa deb "Hayrat ul abror"da qayd etadi¹. Xamsada Abdurahmon Jomiy tavsifi. "Hayrat ul Abror"ning XIII bobida "Uning davoti bor zulmatni oʻziga jamlab olgan; maʼnodorlik esa unga hayot suvidir. Uning bir qatrasidan bahramand boʻlgan odam, shubhasiz, abadiy umrga erishgan boʻladi" deb aytadi.

A.Jomiy tasavvufiy shoir hisoblanadi, shunday ekan uning asarlari boshdan ohirigacha diniy ilmlarimizni ravshanlashtiradi. Bor yogʻI bir misrasini oʻqisak ham unda olam-olam maʼno bor. Yana Navoiy aytadi: "U biron asar ustida qalam tebratsa, uning yozganini mendan oldin boshqa birov koʻrmagan". A.Jomiy 1414-1492-yillarda yashab ijod etgan. Bundan Navoiyga zamondosh, ham ustoz boʻlganini bilamiz. Bunga isbot tarzida xuddi shu XIII bobda keltirilgan hikoyani aytib oʻtaman. Kunlarning birida Navoiyning koʻngli, aqli yoʻl koʻrsatib Jomiyi koʻrgilari kelib qoladi va xuzurlariga boradilar. Uning qoʻllarida bir necha qogʻoz koʻradilar. U kishikulib Navoiyga imo qilib, "Tuhfa" ni yozib boʻlganliklarini aytadilar.

–Ol-da, boshdan ohirigacha koʻrib chiq, boshdan ohirigacha har bir varagʻini koʻzdan kechir! – deyдилar. Bu dostonida Jomiyning kulbasi taʼriflanadi. Keyingi dostonlarda esa bunga toʻxtalмай, toʻgʻridan toʻgʻri shaxsiga ijodiga toʻxtalganlar. Bu bobda yana bir hikoya keltiriladi. "Hayrat ul Abror" da Abdurahmon Jomiy va Nizomiy Ganjaviy haqida soʻz boradi. "Farhod va Shirin" dostonining VII bobi A.Jomiy haqida. "Muhabbat jomini oxirigacha sipqargan va oʻsha katta pillardan oramizda tirik yurgan kimsan Zinda Pili Ahmadi Jom ham shudir. Uni vahdat mayidan gʻoyat mast boʻlgan holda koʻrib, unga ana shu "Zinda pil" laqabini berganlar". Ushbu dostonning VI bobida Nizomiy va Dehlaviylarni Pil (fil) deya taʼriflaydilar.

Keyingi bobda esa Jomiyi "hozirgi", "tirik" fil deb taʼriflaydilar. Aynan shundan ham Jomiy Navoiyning zamondoshi ekanligini bilamiz.

Navoiy "Jomiy timsolida biz fano timsolini koʻramiz. Uning tanasidagi bir holning oʻzi olam-olam maʼnoga ega. Fanolik uning vujudini shu qadar uoʻqotganki, natijada yoʻq narsaning oʻrnida bor narsa paydo boʻlgan" deb Jomiyning tasavvuf ilmining choʻqqisiga chiqqan soʻfiy ekanligini dalillab oʻtganlar. Jomiyga tarif berishda Navoiyga yetadigani boʻlmagani shubhasiz. Navoiy Jomiyi dengizga, soʻzlarini shu dengizdagi durlarga, maʼnodorligini esa durlar ichidagi yana bir dengizga oʻxshatadilar. "Layli va Majnun" dostonining VI bobida Jomiyning besh dostoni qayd etilgan. "Sabbai Sayyor" dostonining VII bobida "Uning arab tilidagi darsi bir duo misoldir. Kamina Ibn Xojibning shogirdi edi. Yoʻq, Ibn Højibning emas, Allohning yori, tafsir ilmining bilimdoni" deya taʼriflaydi. Ushbu fikrdan ham Jomiyning fano olamining sohibi ekanligi isbotini topadi. Bundan tashqari bu bobda Jomiyning bir nechta, xususan "Arbain", "Ruboiyot shahri", "Lavomeʼ", "Lavoyix", "Lamoʻot", "Tovu Mimiya" bu Ibn Foriz sheʼrlariga sharh, "Shavohid", "Nafohot", Tuhfat ul ahror", "Subha", "Oshiq va Maʼshuq", Qasoyid", "Gʻazaliyot" kabi asarlariga alohida alohida toʻxtalib oʻtadi.

"Saddi Iskandariy" dostonida muallif Salaflarning shaxsiga, sifatlariga alohida to'xtalmasdan, yakunlovchi fikr sifatida tanqidiy yoritadi. Jomiy haqida "Jomiy xazratlari Iskandar dostonini zeb-ziynat bilan nazmga solayotganligini eshitdim. Lekin u kishi uning xolatlari uncha ahamiyat bermay, ishni nutqlaridan boshlagan ekan, jumladan, Iskandarning tarixi va u haqdagi afsonalarni tushirib qoldirib, u tarafidan aytilgan dur kabi bebaho so'zlarni yozgan ekan" deya qarshi fikrni bildiradi. Navoiy ustozlarini yuksaklarga ko'tarib tarif etish bilan birga yuksak mahorat bilan shunday ulug' ustozlarning xatolarini ham ko'ra olgan buyuk shaxsdir. Xusrav Dehlaviy. Navoiy garchi "Hayrat ul Abror" dostonida X.Dehlaviyga to'xtalmagan bo'lsada ikkinchidostoni "Farhod va Shirin" dostonining VI bobida Dehlaviyni zikr etib o'tadi. Ushbu bobda Navoiy "Bu durlardan olamlar tinmasdan olib tursa ham, yuz yilda mingdan biri ham kam bo'lmaydi. Xech kim shakar sochuvchi hinduzoda — Xusrav Dehlaviydek gavhar ulashuvchi bo'la olmagan", deb aytadi. Bu misralardan Dehlaviyning ijod yuksakligi bilangina tanishib qolmay, balki uning shaxsiga oid ma'lumotni ya'ni hind shoiri ekanligi namoyon bo'ladi. Yana shunday "Egniga nazm yashil ipakdan to'qilgan to'n yopgan bo'lib, uni bu xolda to'ti emas, Xizr payg'ambar desa to'g'ri bo'ladi" deb aytilgan. Xazrat Dehlaviy tariqat bosqichlarini bosib o'tgan, valiulloh darajasidagi shayxdir. Yuqoridagi ta'rifdan ham buni dalili ko'rinadi. Hattoki Navoiy Xizr payg'ambarga tenglashtirgani Dehlaviyning ulug'ligini yanada oshiradi. Xuddi shu bobda "Bugungi kunda o'sha pil shu hindu ekanligini bilib ol, kichikroq bo'lsada, bir pil" deydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, pil degan. Nizomiydek yuksak bo'lmasada kichikroq fil deya ta'riflaydi. "Layli va Majnun" da Xusrav Dehlaviy juda keng yoritilmagan ammo birgina jumla uning shaxsiyatini keng yoritib bergan. "Hindistonning jodu ishida mohir, hidn sehrgari" degan jumla. "Sabbai Sayyor" dostonining VI bobida Nizomiy va Dehlaviy haqidagina so'z yuritib qolmay, qisman adabiyot nazariyasi, nazm va nasr haqida ham yetarlicha tushunchalar yoritilgan. Bu bobda Dehlaviyga "Uni hind dema, qaro balo ham emas, ofati xudo degin! U qo'liga qalam olsa, nazmi bilan olamga o't soladi", deya ta'riflangan. "Saddi Iskandariy" da Dehlaviyga quyidagicha sifat beriladi, "Xusrav Dehlaviy ham nazm devonlari tuzgan. Uning nomlari chuchuk, ma'nodor nuqtalardan tashkil topgan, qalami esa nay shakardan (shakarqamishdan) yo'nilgan. Uning qalam uchi qaranful (qalampirmunchiq) kabi xushbo'y hamda nozanin sarv daraxtlariga chirmashib ketgan muattar sunbul misolidir". Navoiy Dehlaviyni nazmda Nizomiyday mohir bo'lmasada el orasida unga teng keladigani yo'q deydi va shunday o'xshatish qiladi "Dehlaviy quyosh bo'lmaganda ham Mushtariy yulduziga loyiq shoirdir".

Nizomiy Ganjaviy. Muallif "Hayrat ul Abror" dostonida Nizomiyga ajoyib ta'riflaydi, go'yo Nizomiyning barcha ijodining salmog'ini bir og'iz jumla bilan yoritadi. "Aql xazinachisi yuz avlod umri davomida tarozuda tortsa ham baribir, uning kichik bir qismini tortib ulguradi, xolos".

"Farhod va Shirin" dostonining VI bobida shunday keltirilgan "Uning bu xazinalaridan hech kim Ganjada yashagan sochuvchi Nizomiy Ganjaviy kabi foydalanib, orzulariga yetgan emas". E'tibor bilan qaralsa Navoiy Nizomiyga nisbatan "Ganjada yashagan" deya dunyoga kelgan yurtini aytib so'z yuritadi. Barchamizga ma'lum va mashhur" Bu maydon ichra tura bilish, Nizomiy panjasiga panja urish oson emas" jumlasini "Farhod va Shirin" dostonining VI bobida keltirilgan.

"Daryo qo'zg'alganda shamolga ham ta'sir qiladi, ammo esgan har qanday yel uni chayqata olmaydi, Nizomiy shunday ulug' pil ediki, u gavharning eng katta hazinasini yaratdi".

Navoiy uch Salafni shunday ta'riflaganki, hech biri bir-biridan ortiq yo kam bo'lib qolmagan.

"Layli va Majnun" dostonining V bobida shunday deydi "U — ma'no tangalarining zarb etuvchisi". Nizomiyning so'zlari, asarlarining tengi yo'q. Hatto Navoiy Qorun ganji "Panj Ganj"ning oldida bir vayronadek deydi.

"Sabbai Sayyor" dostonida nazmda ijod qiluvchi ijodkorlarning eng yuksak so'zlisi "Xamsa" yozuvchisi Nizomiydir deya ta'riflaydi.

"Saddi Iskandariy" da "Nizomiy so'z mayi bilan shunday mast — behush bo'lardik, u bilan tengma-teng may ichadigan qodir kimsa yo'q edi" deydi. Bu bilan yuzuvchi Nizomiyning ijod qilayotgandagi ko'rinishini ta'riflaydi. May deganda biz mast qiluvchi ichimlikni emas ijodkorning ilhomini tushunishimiz lozim. She'r yozish bilan mashg'ul paytlarida bor vujudi bilan ijodga sho'ng'ib ketishini Navoiy maslikka, behushlikka qiyoslaydi. Bilamizki, mast odam tashqi olam bilan qiziqmaydi, atrofdagilarni anglamaydi, tushunmaydi va o'zi hohlagan ishini qiladi. Yuqorida aytib o'tgan fikrimiz ya'ni Nizomiyni odatda ismi bilan emas tug'ilgan joyiga nisbat berib keltirib o'tishiga yana bir dalil sifatida "Ganjaviy so'z xazinasiga ega bo'lganlarning nodiri yaktosi Ganjada parvarish topgan zotdir" degan jumlaning keltirish mumkin. Nizomiy yaratgan xazinada dunyoga sochilgan va bu xazinada bir jahon haqiqatlar yashiringan.

Darhaqiqat "Xamsa" yaratish juda mushkul ish. Navoiy ham o'z Xamsasini yaratishdan oldin o'zigacha bo'lgan barcha xamsalarni sinchiklab o'rganib chiqqan. Umuman olganda barcha ilmlarda huddi shunday. Xamsa yozishga qo'l urganlar juda ko'plab topiladi. Ammo Nizomiy, Dehlaviy va Jomiy kabi o'chmas iz qoldirish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Navoiy ulug' ustozlarini ijodini esga olishda "Xamsa"sidagi birgina dostoni bilan cheklanib qolmay barcha dostonlarida ularga to'xtalib o'tadi. Aynan shundan ham Navoiyning ustozlariga bo'lgan hurmat-e'tiborini ko'rish mumkin. Navoiy ustozlarining ijodiga adolatli va holisona nazar soladi. "Saddi Iskandariy" da tanqidiy fikrlar ham oqilona aytib o'tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. "Navoiyshunoslik" (1-kitob). — Toshkent: Tamaddun, 2018.
2. Navoiy A. "Hayrat ul Abror"
3. "Farhod va Shirin" nasriy bayon muallifi G'afur G'ulom, nashrga tayyorlovchi A.Hayitmetov. Toshkent: Adabiyot va san'at, 1975.
4. "Layli va Majnun" nasriy bayon mualliflari Rahmonov V., Norqulov N. Adabiyot va san'at. 1990.
5. A.Navoiy "Sabbai Sayyor". —Toshkent: G'afur G'ulom. 1991.
6. A.Navoiy "Saddi Iskandariy" Inoyat Maxsumova nusxasi asosida qayta to'ldirib, nashrga tayyorlovchi Mavjuda Hamidova.